

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL, VITAGEN, RAQAMLI VA REFLEKSIV TEXNOLOGIYALARNING INTEGRATSIYASI

*Madmarova Gulchehra Qodirovna*

*Andijon davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** *Pedagogik ta'lim mazmuni imkon qadar bo'lajak kasbiy faoliyat talablari bilan mos kelishi zarur. Faqat shu yo'l bilangina XXI asr maktablari uchun zarur bo'lgan ta'lim standartlari va o'quv jarayonlarining sifatli rivojlanishiga erishish mumkin. Bu esa shunday holatlarni istisno etadi: agar maktablarda o'qitish metodikasi haddan ziyod rasmiy tusga ega bo'lsa, o'quv jarayonining maqsadi bolani shaxs sifatida rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish emas, balki faqat ma'lumot yetkazish bo'lib qolsa, taraqqiyotga erishish qiyin bo'ladi. Ushbu maqolada Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishda interfaol, vitagen, raqamli va reflektiv texnologiyalarning integratsiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijodkorlik, integratsiyasiyalash, texnologiya, kompetentlik, ijodiy faollik, elektron portfel, raqamli ta'lim resurslari, innovatsion ta'lim.*

## ИНТЕГРАЦИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ, ВИРТУАЛЬНЫХ, ЦИФРОВЫХ И РЕФЛЕКСИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО- ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Аннотация:** *Содержание педагогического образования должно максимально соответствовать требованиям будущей профессиональной деятельности. Только так можно достичь необходимых образовательных стандартов и качественного развития учебных процессов для школ XXI века. Исключаются такие случаи: если методика преподавания в школах слишком формальна, если целью учебного процесса является не создание благоприятной среды для развития ребенка как личности, а лишь передача информации, то добиться прогресса будет сложно. В статье представлена информация об интеграции интерактивных, витагенных, цифровых и рефлексивных технологий в развитие профессионального и педагогического творчества будущих учителей.*

**Ключевые слова:** *творчество, интеграция, технология, компетенция, творческая деятельность, электронное портфолио, цифровые образовательные ресурсы, инновационное образование.*

## INTEGRATION OF INTERACTIVE, VITAGENIC, DIGITAL AND REFLECTIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL CREATIVITY IN FUTURE TEACHERS

**Abstract:** *The content of pedagogical education should correspond as much as possible to the requirements of future professional activity. Only in this way can the educational*

*standards and qualitative development of educational processes necessary for schools of the 21st century be achieved. This excludes such cases: if the teaching methodology in schools is too formal, if the goal of the educational process is not to create a favorable environment for the development of the child as a person, but only to convey information, then it will be difficult to achieve progress. This article provides information on the integration of interactive, vitagen, digital and reflexive technologies in the development of professional and pedagogical creativity in future teachers.*

**Keywords:** *creativity, integration, technology, competence, creative activity, electronic portfolio, digital educational resources, innovative education.*

## KIRISH

Innovatsion pedagogik faoliyat ta'lim tizimining rivojlanishini ta'minlovchi yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan holda tayyorlash pedagogika oliy ta'lim muassasalarining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Bu jarayon bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatida ta'lim jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunga muvofiq, tadqiqotning ushbu paragrafida innovatsion ta'lim muhitini to'g'ri tashkil etish, uning har bir tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorligini ta'minlash, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish imkoniyatini oshiruvchi shart-sharoitlarini aniqlashtirish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, jarayonning maqsadga to'liq xizmat qilishini ta'minlash maqsadida interfaol, vitagen, raqamli va reflektiv texnologiyalarning integratsiyasiyalash yo'llari ochib berilgan.

Innovatsion ta'lim muhitiga qo'yiladigan talablar uch guruhga ajratildi. Ushbu guruhlarning birinchisi normativ talablar bo'lib, ular ta'lim jarayonida DTS, Malaka talablari va O'quv rejalarida belgilangan ta'lim maqsadlariga erishish, barcha talabalar uchun zarur o'qitish sharoitlarini yaratish hamda kasbiy va innovatsion tayyorgarlikning dolzarbligi va talabgirlikni saqlashga yo'naltirilgan.

1. *Normativ talablar* doirasida innovatsion ta'lim muhiti, avvalo, tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq bo'lishi lozim. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion faoliyatga tayyorlikni maqsadli

shakllantirish, jumladan, innovatsion tafakkur va innovatsion madaniyatni rivojlantirish, innovatsion faoliyatga oid kompetentlikni tarkib toptirish, o'z-o'zini rivojlantirishga ehtiyojni kuchaytirish hamda innovatsion faollikni rag'batlantirishi zarur.

Bundan tashqari, innovatsion ta'lim muhiti mavjud metodologik va instrumental ta'lim darajasiga mos kelishi, talabalarga ta'lim muassasasining barcha resurslaridan foydalanish imkonini berishi, ularning huquq va majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlashi lozim. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining vaqt va makon jihatidan moslashuvchanligi, boshqariluvchanligi hamda o'zgaruvchan o'qitish sharoitlariga tezkor moslashuvi normativ talablarning muhim ko'rsatkichlari sifatida qaraladi.

2. *Psixologik-pedagogik talablar* innovatsion ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, individual, differensial yondashuvlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirish, ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish, dolzarb kompetensiyalarni egallash hamda ta'lim jarayonida psixologik qulaylikni ta'minlashni nazarda tutadi.

Mazkur talablarga muvofiq innovatsion ta'lim muhiti quyidagilarni ta'minlashi lozim: a) ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlariga mos bo'lishi, jumladan, ularning o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olish, psixologik zo'riqish va salbiy ta'sirlarni optimallashtirish hamda o'qishga bo'lgan barqaror qiziqishni qo'llab-quvvatlash; b) ta'lim standartlari talablariga muvofiq holda o'qitishning turli murakkablik darajalarini (bazaviy, yuqori va ilg'or) ta'minlash; v) individual ta'lim trayektoriyalarini amalga oshirish asosida ta'limni shaxsga yo'naltirish, ularning barcha zarur talablariga rioya etilishi hamda ta'lim oluvchilarning ushbu trayektoriyalarni tanlash jarayonida ishtirokini ta'minlash; g) ta'lim oluvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, ularning hayot faoliyatining turli sohalarida ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; d) innovatsion ta'lim muhiti doirasida refleksiya jarayonini amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlash; e) ta'lim oluvchilarning psixologik-pedagogik imkoniyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlaridan maksimal darajada foydalanish.

3. *Tashkiliy-metodik talablar* innovatsion ta'lim muhitining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, uning imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim oluvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish va ta'lim jarayonida qulaylikni kuchaytirishga yo'naltirilgan.

Mazkur talablar doirasida innovatsion ta'lim muhiti quyidagi shartlarni qamrab olishi lozim: a) innovatsion ta'lim muhitining amalga oshirilishini doimiy monitoring qilish va nazoratni ta'minlash, uning har bir tarkibiy qismi bilan barqaror teskari aloqani yo'lga qo'yish; b) raqamli qo'llab-quvvatlash, ochiqlik va mobillik xususiyatlariga ega bo'lgan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ularning tadqiqot va loyiha faoliyatiga yo'naltirilganligi, har bir faoliyat turi bo'yicha teskari aloqaning kafolatlanishi, natijalarni umumlashtirib boruvchi baholash tizimining joriy etilishi, munozarali ta'lim formatiga tayanish hamda yangi raqamli savodxonlikni rivojlantirish; v) integratsion ta'limdan foydalanish asosida maxsus bilimlarni egallash va boshqa fanlarni o'rganish imkoniyatlarini yaratish.

### METODOLOGIYA

Ta'lim muhiti to'g'risidagi mavjud ilmiy qarashlar hamda innovatsion ta'lim muhitining vazifalari haqidagi yondashuvimizdan kelib chiqib, mazkur muhitni o'zaro bog'liq instrumental, metodologik, infratuzilmaviy va boshqa tarkibiy qismlar tizimi sifatida talqin etish mumkin. Ushbu tizim bo'lajak o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik ijodkorlikni, jumladan innovatsion faoliyatga oid kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatning barcha asosiy bosqichlarida faol ishtirok etishi, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi va uning tarmoq hamkorlarining zarur va yetarli resurslarini optimal uyg'unlashtirish asosida modellashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Yuqorida belgilab olingan talablarga muvofiq innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilib, uning tarkibiy qismlari sifatida konseptual-maqсадli, infratuzilmaviy, mazmunli, psixologik-didaktik, metodologik-texnologik va relaksatsion-dagnostik komponentlar belgilandi.

*Infratuzilmaviy komponent* innovatsion ta'lim muhitining moddiy-texnik, axborot-resurs va tashkiliy asoslarini qamrab oladi. U ta'lim jarayonini innovatsion

va ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan fazoviy-predmetli sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Mazkur komponent tarkibiga ta'lim auditoriyalari, kreativ laboratoriyalar, ilmiy-tadqiqot markazlari, raqamli platformalar va tarmoq hamkorlik infratuzilmalari kiradi. Infratuzilmaviy komponent bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil izlanishi, tajriba-sinov faoliyati va ijodiy loyihalarni amalga oshirishiga qulay shart-sharoit yaratib, kasbiy-pedagogik ijodkorlikning real amaliy muhitda rivojlanishini ta'minlaydi.

60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) bakalavriat ta'lim yo'nalishida "Kreativ pedagogika" nomli fani doirasida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari mazkur fanning amaliy mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari doirasida tashkil etilib, ushbu tadqiqot ishi uchun "Innovatsion kreativ yondashuvlar" nomli qo'shimcha o'quv-moduli ishlab chiqildi. Mazkur o'quv-modul doirasida infratuzilmaviy komponent quyidagi shakllarda namoyon bo'ldi:

1. Kreativ auditoriya va pedagogik laboratoriya. Auditoriyalar mobil mebellar, interaktiv doska, multimediyaviy vositalari va muammoli vazifalarni guruhda muhokama qilishga moslashtirilgan holda jihozlandi. Bu bo'lajak o'qituvchilarga dars jarayonini turli pedagogik vaziyatlar asosida ijodiy modellashtirish imkonini berdi.

2. Pedagogik texnopark yoki "Innovation Hub". Texnopark doirasida talabalar dars ishlanmalari, mualliflik metodikasi, didaktik o'yinlar va raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqdi. Masalan, bo'lajak o'qituvchi muammoli o'qitish asosida dars loyhasini ishlab chiqib, uni amaliy mashg'ulotda sinovdan o'tkazdi.

3. Axborot-ta'lim muhiti (LMS, raqamli platformalar). Google Classroom, Moodle yoki Teams platformalari orqali talabalar:

- o'z ijodiy ishlari portfelini yuritadi;
- refleksiv kundaliklarni joylashtiradi;
- loyiha ishlarini namoyish qiladi.

Bu jarayon kasbiy-pedagogik ijodkorlikni uzluksiz va mustaqil rivojlantirishga xizmat qildi.

4. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov maydonchalari. Talabalar umumta'lim maktablari bilan hamkorlikda dars kuzatuvlari, mini-tadqiqotlar va eksperimental mashg'ulotlarda ishtirok etadi. Bu ularda nazariy bilimni haqiqiy pedagogik vaziyatlarda ijodiy qo'llash ko'nikmasini shakllantirdi.

Infratuzilmaviy komponent innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish uchun real amaliy sharoit yaratib, ularning ijodiy faoliyatini modellashtirish va sinovdan o'tkazish imkonini ta'minlaydi.

*Raqamli ta'lim vositalari* innovatsion ta'lim muhitining funksional yadrosi bo'lib, ta'lim jarayonini ochiq, moslashuvchan va interaktiv shaklda tashkil etish imkonini beradi. Ular bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, kasbiy-pedagogik ijodkorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil hisoblanadi.

Raqamli ta'lim vositalari innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib, ularning ijodiy salohiyatini raqamli muhitda namoyon etish va rivojlantirish imkonini yaratadi.

*Mazmunli komponent* innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini tanlash, tuzish va tizimlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu komponent ta'lim mazmunining nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, ijodiy faoliyat tajribasi, muammoli vaziyatlar va refleksiv faoliyat bilan boyitilishini ta'minlaydi.

“Kreativ pedagogika” fanidan “Innovatsion pedagogik faoliyat va ijodiy dars loyihalash” nomli mustaqil ta'lim uchun o'quv topshiriqlar bloki ishlab chiqildi. Ushbu blok doirasida mazmunli komponent quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

1. Interfaol, vitagen, raqamli va refleksiv texnologiyalar integratsiyasi. Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish jarayoni interfaol, vitagen, raqamli va refleksiv texnologiyalarning o'zaro integratsiyasi asosida samarali tashkil etiladi. Mazkur texnologiyalar uyg'unligi ta'lim jarayonini faqat bilim uzatishga emas, balki talabaning shaxsiy tajribasi, ijodiy faolligi va kasbiy o'zini anglashiga yo'naltiradi.

Interfaol texnologiyalar talabalarning faol ishtiroki va hamkorligini ta'minlasa, vitagen texnologiyalar ularning hayotiy va pedagogik tajribasini o'quv jarayoniga jalb etadi.

## XULOSA

Raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni ochiq, moslashuvchan va innovatsion shaklda tashkil etish imkonini bersa, reflektiv texnologiyalar kasbiy faoliyatni tahlil qilish, baholash va takomillashtirish mexanizmini yaratadi. Ushbu texnologiyalarning integratsiyasi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish samaradorligi pedagogik jarayonning moslashuvchanligi, raqamli resurslardan foydalanish, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash, reflektiv-amaliy mashg'ulotlar, loyiha va tadqiqot faoliyatini integratsiyalash kabi mexanizmlar orqali ta'minlanadi. Mazkur shart-sharoitlar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish va o'qituvchining kasbiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

9. Абдуллаева Ш.Х. Педагог профессионал компетентлигини шакллантиришнинг ижтимоий психологик механизмлари // псих. фан. бўй. фан доктори (DSc) дисс. – Toshkent. 2019, –B.216.
10. Abdusamiyev D.A. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimi: ped.fan.dok(DSc). Diss.... – Namangan.: 2025. – 262 b.
11. Brookfield, S.The Skillful Teacher: On Technique, Trust, and Responsiveness in the Classroom [Electronic resource] / S.Brookfield. Wiley, 2020.
12. Brumfit, CH. Communicative Methodology and Innovative Teacher Training / CH. Brumfit // Applied Linguistics Journal. – 2005. – Vol. 26. – № 1. – P. 45–62.
13. Competency-Based Education Network (C-BEN). Defining and Scaling Competency-Based Education: Insights and Practic-es. 2023. [Electronic resource].
14. Craft A.Continuing professional development /A.Craft. —London: Routledge and Falmer, 2000. DOI: 10.4324/9780203420041
15. Cullen R.Transfer of training: Assessing the impact of INSET in Tanzania [Electronic resource] / R. Cullen; in D.Hayes(Ed.) // In-service Teacher Development: International Perspectives. London: Prentice Hall, P. 20–36. Access mode: [https://www.researchgate.net/publication/320190755\\_INSET\\_Innovation\\_and\\_Change\\_An\\_Introduction](https://www.researchgate.net/publication/320190755_INSET_Innovation_and_Change_An_Introduction).

16. Dip, C. Z. Pedagogical Design and Creative Thinking in Higher Education / C. Z. Dip, M. A. Santos // International Journal of Creativity and Innovation in Education. – 2021. – Vol. 5. – № 3. – P. 112–129
17. European Commission. Developing Key Competencies for Lifelong Learning: European Guidelines for Teachers and Educa-tors. 2021. [Electronic resource]. Access mode: [https://education.ec.europa.eu/sites/default/files/document-library-docs/factsheet-key-competences-lifelong-learning\\_en.pdf](https://education.ec.europa.eu/sites/default/files/document-library-docs/factsheet-key-competences-lifelong-learning_en.pdf)